

ZAMONAVIY TARJIMA MUAMMOLARIGA OID AYRIM

QAYDLAR

Yusupova Umida Inomovna

**Namangan davlat universiteti Ijtimoiy- gumanitar yo‘nalishlar
bo‘yicha chet tillar kafedrasи o‘qituvchisi
Annotatsiya**

G’. Salomov ta’biri bilan aytadigan bo‘lsak, - “Aslida fan, badiiy adabiyot, san’at va tarjima haqidagi bahsni xalqning savodxonligi, umumiy madaniy saviyasi, o‘lkada matbuot va nashriyot ishining ahvoli masalasidan boshlamoq kerak. Negaki, adabiyot, kitob, tarjima ularni o‘qiy oladigan, tushunadigan va munosib baholashga qurbi yetadigan xalq uchun yaratiladi” Bas shunday ekan, madaniyatlararo tafovutlar muammosi tarjimaning dolzarb muammolaridan biri sifatida e’tirof etilishi, imiy asosga ega. Chunki, muayyan xalq vakillarining tafakkur tarzi ular qaysi madaniyatga, qaysi din hamda millatga tegishli ekanliklariga bevosita bog’liqligini sira inkor etib bo‘lmaydi. Xalqlarning tafakkur tarzi esa, ularning tillari orqali namoyon bo‘ladi. Demak, tillararo tafovutlar ham tarjima muammolaridan biri. Muallif ushbu tadqiqot ishida ayni shunday masalalar haqida so‘z yuritadi.

Kalit so‘zlar: badiiy tarjima, flektiv tarjima, tarjima tanqidi

Аннотация

Г. По словам Саломова, - "Вообще-то разговор о науке, художественной литературе, искусстве и переводе надо начинать с вопроса о грамотности, общекультурном уровне народа, о состоянии печати и издательского дела в стране. Ведь и литература, и книги, и перевод создаются для людей, умеющих читать, понимать и позволяющих себе их должным образом оценить». . Потому что нельзя отрицать, что образ мышления представителей тех или иных людей напрямую связан с тем, к какой культуре, религии и национальности они принадлежат. Образ мышления людей проявляется через их язык. Поэтому межъязыковые

различия также являются одной из проблем перевода. Об этих же вопросах автор говорит и в данной исследовательской работе.

Ключевые слова: художественный перевод, флексивный перевод, переводческая критика.

Abstract

G. In Salomov's words, - "Actually, the discussion about science, fiction, art and translation should be started with the issue of literacy, general cultural level of the people, and the state of press and publishing in the country. After all, literature, books, and translation are created for the people who can read, understand, and can afford to evaluate them properly." Therefore, the problem of intercultural differences is recognized as one of the urgent problems of translation. Because it cannot be denied that the way of thinking of representatives of certain people is directly related to which culture, religion and nationality they belong to. People's way of thinking is shown through their languages. Therefore, interlanguage differences are also one of the problems of translation. The author talks about the same issues in this research work.

Key words: artistic translation, inflectional translation, translation criticism

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mavzuga oid manbalar haqida mulohaza yuritadigan bo'lsak, Hans Yoaxim Shtyorixning "Das Problem des Übersetzens" (Tarjima muammosi - Darmstadt, 1963, 1973) to'plami, T. R. Levitskaya va A. M. Fitermanning «Problemi perevoda» (Moskva, 1976) kitobi, Anton Popovichning «Problemi xudojestvennogo perevoda» (Moskva, 1980) kitobi, Sider Florinning «Muki perevodcheskie» (Tarjima mashaqqatlari – Moskva, 1983) kitobi, G'aybulla Salomovning "Tarjima tashvishlari" (Toshkent, 1983) kitobi, Haydemarie Zalevskining "Probleme des Simultandolmetschens" (Sinxron tarjima muammolari - Berlin, 1987) nomli monografiyasi hamda yana boshqa bir qancha kitoblar, monografiyalar, o'quv qo'llanmalari, maqola va tezislar aynan shunday manbalar qatoriga kiradi.

Tarjima ishlari birinchi navbatda qiyosiy xususiyatga egadir. Bu qiyos tillar qiyosida, adabiyotlar qiyosida, madaniyatlar qiyosida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham mazkur ishni yozishda qiyosiy-tarixiy va tasviriy metodlardankeng foydalanildi.

Asosiy qism

Muhokama va natijalar

Tarjima asliyatga qay darajada mos bo‘lishi, mana shunday tafovutlar oz yoki ko‘pligiga bog’liq. Ma’lumki, tillar genetik, morfologik jihatdan o‘zaro farqlanadi. Masalan, odatda ikki flektiv yoki ikki agglyutinativ tillararo tarjima, flektiv-agglyutinativ yoki agglyutinativ-flektiv tillararo tarjimadan aniqroq chiqishi tabiiy. Chunki, bunday tillardagi grammatik, leksik, fonologik birliklar ko‘pincha bir-biriga mos keladi. Bunday afzallik, ayniqsa, she’riy tarjimalarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tarjimashunoslikda tarjima original ijodga qiyoslangan hollar ko‘p uchraydi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki tarjimaga tegishli muammolarning aksariyati original ijodda ham uchraydi. Masalan, matnga sharh va izohlar ilova qilinishi hollari original ijodda ham ko‘p uchraydi. Shuningdek, original ijodga taalluqli tahrir, tahlil, tanqid muammolari tarjimaga ham tegishlidir. “O‘zbek tilining izohli lug’ati”da arabchadan o‘zlashtirilgan tahrir so‘zi quyidagicha izohlangan: “1 Yozma ishni, asarni, tuzatishlar kiritib yaxshilash, tuzatish. Ikki esk. Yozish, ijod qilish”. Xuddi shu lug’atda tahrirchi so‘zi tahrir qiluvchi, muharrir, redaktor ekanligi ham qayd etilgan. Ta’kidlash lozimki, badiiy, ilmiy va hokazo asarlar tahrirchisi bilan shu sohalarga oid tarjima adabiyotlari tahrirchisi o‘rtasida katta farq bor. Chunki muayyan tarjima adabiyoti tahrirchisi tegishli sohanigina emas, balki tegishli tillarni ham bilishi kerak. Qolaversa, u tarjima ilmidan ham atroflicha xabardor bo‘lishi shart. Aks holda u tarjima adabiyoti nufuzini ancha tushirib yuborishi mumkin. Natijada, tarjimonga ham, muallifga ham tuyaylan darajada ma’naviy zarar yetkaziladi. Bunday zarar minglab, millionlab o‘quvchilarga ham yetib borishi muqarrar. Ming afsuski, oxir-oqibatda asosiy aybdor mashaqqatli va halol mehnat sohibi tarjimon bo‘lib

qolishi mumkin. Har qanday tarjimaning qadr-qimmati, uni tahlil qilish, ya’ni o’rganish, tekshirish orqali namoyon bo‘ladi. “Tegishli tarjima nusxasi asliyatga mosligi haqida haqiqiy xulosa chiqarish uchun, dastlab aynan qaysi matn tarjimonga asliyat sifatida xizmat qilgani aniqlab olinishi kerak” [1] Tarjima tahliliga xuddi shu nuqtai nazardan yondashilishi lozim. Chunki muayyan tarjima asliyat tili orqali emas, biror vositachi til orqali amalga oshirilgan bo‘lishi ham mumkin. Agar vositachi tilda tegishli matnning bir nechta tarjimalari bo‘lsa, tanlangan matn asliyatga qanchalik yaqinligi haqida xulosa chiqarilishi kerak.

Umuman olganda tarjima asliyatdan bevosita amalga oshirilgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Vositachi tildan qilingan tarjimani asliyatdan qilingan tarjima sifatida taqdim etadigan tarjimonlar ham uchraydi. Tarjima tanqidi bunday hollarga chek qo‘yishi lozim. I. Leviy (1927-1967) yozishicha, - “Tarjima haqidagi tanqidiy mulohazalarning aksariyati haqiqiy estetik qarashdan kelib chiqilgan holda bildirilmaydi va ko‘pincha shunchaki qaydlar tarzida, shuningdek tarjima muvaffaqiyatlari va silliq chiqqanligi haqidagi umumiy ifodalar bilan cheklanilgan holda bo‘ladi”. Shuningdek, I. Leviy faqat tarjima nazariyasiga oid ishlardagina (tezis, monografiya va h.) muayyan tarjimaga oid xato va kamchiliklar ochib tashlanishini ta’kidlaydi. A. Fyodorov esa tarjima tanqidi borasida amalga oshirilgan ishlarni yuqori baholaydi. “Badiiy adabiyot – buyuk san’at, madaniyatimiz hayotidagi muhim jabhadir, - deb yozadi u. - Ayni paytdagi tarjimalar tanqidi mantiqiy, halol, xolisona. Tarjimalarga taqrizlar o‘quvchiga ham, tarjimonning o‘ziga ham kerak. Qolaversa, ular bizning kунлардаги таржимачиликнинг келажакда юратиладиган тарихи учун ham muhim materialdir”. A. Fyodorovning mulohazasiga ko‘ra, tarjima tanqidi - san’at. Tarjima san’atidagi muvaffaqiyatlarga tanqid san’ati ham bevosita bog’liqligini u shunday ifodalaydi: «V uspexax iskusstva perevoda tak ili inache uchastvovalo i uchastvuet iskusstvo yego kritiki»[2]. G’. Salomov badiiy tarjima amaliyotida hozirgacha jiddiy o‘rganilmagan muammolardan ba’zilari sifatida quyidagilarni qayd etadi:

- “1. Kitobxonga tushunarli til bilan tarjima qilish, tarjimada avtor va asarning til, uslub xususiyatlarini o‘zgartirish huquqini beradimi?
2. Aksincha, muallifning til va uslub xususiyatlarini aks ettirish, asarni hijjalab tarjima qilish lozimligini ko‘rsatadimi?
3. Nima sababdan badiiy tarjima qilish printsiplari qat’iy bo‘lsa ham, bir asarni bir necha kishi ag’darsa, bir-biridan jiddiy tafovut qiladigan bir necha xil tarjima hosil bo‘ladi. Tarjimada bu taxlit xilma-xillikka yo‘l qo‘yish mumkinmi?”[3]

Tarjimaning asl mohiyatini anglash uchun, mazkur faoliyat yana qanday muammolarga ega ekanligi aniqlay olinishi maqsadga muvofiqdir. “Bugungi kunda tarjima nazariyasida muhokama etilayotgan tarjima muammolari ichida - tarjima invarianti, tarjima bo‘lish muammosi, tarjima birligi, tarjimaning semantik va uslubiy muammolari, tarjima amaliyoti va h. – biz tarjimada tushunish muammosini topa olmaymiz”[4], - deb yozadi A. Kryukov. Shuningdek, u mazkur muammoni o‘rganishga falsafiy hermenevtika (matnni tushunish san’ati haqidagi ta’limot) asosida yondashishni taklif qiladi. Shunday mulohaza nemis tarjimashunoslari Fritts Paypke, Radegundis Shtoltse va boshqalar tomonidan ham bildirilgan. Tarjimaga xos yana bir muammo tarjima uslubi muammosidir. “Uslub yozuvchining o‘zi, uning butun borlig’i, vujudi, yurak tepishi, badiiy mushohada formasi, uning ovozi demakdir. Binobarin, agar tarjimada avtoring uslubi to‘g’ri aks ettirilmagan bo‘lsa, bunday tarjimaning to‘g’riligiga ishonib bo‘lmaydi: unda tarjimon avtoring o‘rniga o‘zini qo‘ygan bo‘ladi”, - deb yozadi G’. Salomov. Umuman olganda, bu muammo haqida yozmagan tarjimashunos deyarli bo‘lmasa kerak. Biroq tarjima ilmida tarjima uslubi muammosi nimalardan iborat ekanligi hanuzgacha to‘liq ochib berilgan, deb bo‘lmaydi. Tarjimaning navbatdagi muammosi sifatida tarjimon omili muammosi e’tirof etilishi mumkin. Chunki, muayyan matnni tushunuvchi ham, uni boshqa tilda ifodalovchi ham aynan tarjimon yoki tarjima qiluvchi shaxsdir. Bu muammo haqida I. Levy shunday yozgan: “Asliyatni yaratish jarayoniga nisbatan tarjimonning ijodiy jarayonini o‘rganish mushkulroq, chunki uning izlari bizga faqat til orqali ifodalangan holda, odatda nozik mazmunli tuslarda,

berilgan bo‘ladi, qolaversa, aynan tarjimonning ijodiy jarayoniga ko‘pincha jurnal yoki nashriyot tahrirchilar va boshqa tuzatuvchilar aralashishadi” Shunga o‘xhash mulohaza Ivan Kashkin, Givi Gachechiladze, A. Fyodorov va boshqa tarjimashunoslар tomonidan ham bildirilgan. Shunday bo‘lsa-da, har qanday tarjimaning sifati aynan tarjimon omiliga, ya’ni uning bilimi va mahoratiga bog’liq ekanligini hech kim inkor eta olmaydi.

Masalan, Uchqun Nayarov “ Chayon yili asari “ nemischada tarjimon Ingeborgf Baldauf “Das Jahr des Skorpions asari” misolida Tana a`zolari ishtirokidagi iborali gaplar misolida ko‘rib chiqsak:

1.Eringizni duo qiling , bolangiz baxtiga eson- omon qaytib kelsin, o‘zi bosh- qosh bo‘lsin.[5]

Nemischasi: Bette fur deinen Gatten, dass er um des Lebensglucks euer Tochter willwn heil und gesund nach Haus kommt, dann wird alles wieder gut.... [6]

Bu yerda tarjimon „o‘zi bosh –qosh „, bo‘lsin iborani- oddiy jumlalar bilan – dann alles wird gut – keyin hammasi yaxshi bo‘ladi deya qolgan , vaholanki, bosh-qosh bo‘lmoq iborasi xamma narsada o‘zi qatnashadi degani;

Biroq sandal-kursiga yetarli chiqim topa olmadi , qo‘li kaltalik qildi
Aber sie konnte nicht genug Geld fur die Kohlebecken und das Vierbein daruber auftreiben.[8]

Bu yerda tarjimon zo‘r mahorat bilan tarjima qilgan. O‘zbek tilidagi ibora “qo‘li kaltalik qildi ‘ ni ya’ni yetarli mablag` yoqni aniq muqobilini – Vierbein daruber auftreiben deb bergen, biroq milliy kolorotni saqlagan holda Sandal so‘zini qoldirsa bo‘lardi , chunki nemislarda sandal so‘zi yoq tarjimon buni – Kohlebecken- ko‘mir tog` ora deb o‘girgan.

.... Uning ustiga yem-xashak tanqis, eti borib suyagiga yopishib qoldi, suti 2 tovoqni ham to‘ldirmaydi, tappisi kamaygan, ma’ragani –ma’ragan , quloqni qomatga keltiradi [9]

Ausserdem wurde das Futter knapp, sie magerte bis auf die Knochen ab, gerade zwei Teller Milch gab sie noch , ihr Dung wurde auch immer weniger ,

sie muhte jammerlich und stellte schon die Ohren auf.[10] Ushbu misolda ikki hil qiziq jumboqli , tarjimada xiralashish kuzatilmoxda . Chunki , 1- misolda suti ikki tovoqni ham to‘ldirmaydi gapni -.....gerade zwei Teller Milch gab sie noch deb bergen ,vaholanki Sut suyuq maxsulot bo‘lgani uchun – Teller so‘zi noto‘g’ri qollangan , buni orniga - Zwei Schale - deb o‘girilganda mantiq saqlangan bo‘lardi.

—misoldaqulqoni qomatga keltiradi borasida obrazlilik yo‘qolgan – ya`ni-.... Stellte schon Ohren auf – bunda to‘g’ridan tog‘ri sigirni qulog`i tikka bo‘ldi deb tarjima qilingan , vaholanki muallif bu iborada „marayverib jonga tegdi , degan ma`noni ko‘zlagan. [11]

O‘ziyam sharti ketib , parti qolgan chol ekan-[12]..... Mit einem Fuss in Grab....[9] Bu yerda eng qizig`i bu iborani har ikkalasi ham yoshi ulg`ayib qolgan ma`noda keladi yoki qo‘llaniladi , ya`ni sharti ketib , parti qolgan ham, bir oyog`i go‘rda degan iboralar bor , biroq tarjimon – bir oyog`i gordani qollab qo‘ya qolgan.

Xulosa

Tarjimaning qiyosiy tilshunoslik bilan “egizak”ligi ma’lum. Biroq tarjimaning grammatik, leksik va stilistik muammolarini mustaqil ilmiy tadqiq etmasdan turib, uning pragmatika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika va semiotika bilan aloqalarini o‘rganib bo‘lmaydi. Mashhur tilshunos, tarjimashunos Roman Yakobsonning yozishicha, bir tildagi belgini boshqa tildagi belgi bilan bera bilishning uch turi mavjud: birinchisi, tarjima qilinayotgan asar tilidagi belgini boshqa belgi yordamida tarjima qilish yoki unga boshqa nom berish; ikkinchisi, semiotik belgilarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish; uchinchisi, semiotik tizimlararo tarjima: til belgilarini musiqa, raqs, kino, rasm bilan bera bilish. Hali biz bunday tarjima muammolarini o‘rganishdan ancha yiroqmiz. Xorijdagi tarjimashunoslikka doir tadqiqtarlarni chuqurroq o‘rganish bo‘lg‘usi tarjimonlar uchun juda foydalidir. Tarjimondan nafaqat til bilimdoni, balki adabiyotshunos va elshunos bo‘lish ham talab etiladi. Chunki muayyan xalqning madaniyati, assotsiativ tafakkurini chuqur bilmay, til

boyligini yaxshi egallamay turib tarjimon badiiy til vositalarini to‘g‘ri tanlay olmaydi, tilning poetik jihatlarini his etmay, oqibatda tarjima to‘g‘ri va ta‘sirchan chiqmaydi. Shu ma’noda yosh tarjimonlarga sohaning yetuk mutaxassislari, tajribali sharqshunos-tarjimonlar yordamida mahorat darslari tashkil etib, tarjimada milliy koloritning berilishi, so‘z tanlash mahorati, davr ruhining til birliklari vositasida to‘g‘ri aks ettirilishi, nihoyat, asar muallifining g‘oya-maqsadini aniq yetkazib berishga o‘rgatish zarur deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J. Levy. The Art of Translation. The Benjamins Translation Library, 2011.
2. Hans Yoaxim Shtyorixning “Das Problem des Übersetzens” (Tarjima muammosi - Darmstadt, 1963, 1973).
3. T. R. Levitskaya va A. M. Fitermanning «Problemi perevoda» (Moskva, 1976).
4. Anton Popovichning «Problemi xudojestvennogo perevoda» (Moskva, 1980).
5. Sider Florinning «Muki perevodcheskie» (Tarjima mashaqqatlari – Moskva, 1983).
6. G’aybulla Salomovning “Tarjima tashvishlari” (Toshkent, 1983).
7. Haydemarie Zalevskining “Probleme des Simultandolmetschens” (Sinxron tarjima muammolari - Berlin, 1987)
8. Uchqun Nazarovning “Chayon yili” (Toshkent, 1983)
9. Ingeborg Baldaufning “Das Jahr des Skorpions” (Dageli, 2002).
10. Ахмаджонов Н. Analysis of poetonyms in prose works// International interdisciplinary research journal (girj) Volume 10, Issue 2, February, 2022
ISSN: 2347-6915 SJIF Impact Factor: 7.472 P. 487-490